

JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING IJTIMOIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY QARASHLARI

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi IIV qo'shinlarini
tayyorlash kafedrasi katta o'qituvchisi
Djabbarov Tursunali Mamadalimovich*

Annotatsiya: Maqolada jadidlar va ularning yaqinlari haqidagi fikrlar, ma'lumotlar ularni qatag'on qilish uchun sovetlarning kuch ishlatar idoralari uchun asosiy manba, dastak bo'lib xizmat qilgan. Jadidlarning O'zbekiston jamiyatida xalq maorifi, oliv ta'limni rivojlanadirish, bunda milliy kadrlar tarbiyalashga asosiy e'tibor berilishi zarurligi, buning uchun sovet boshqaruv organlarini milliylashtirish kerakligi haqida olib borgan baholi qudrat faoliyatini keng ochib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy ziyolilari, qizil O'zbekiston, qishloq maktablari, mafkuraviy front, yangi turkiy alifbo.

Аннотация: В статье мнения и сведения о жадидах и их близких послужили основным источником и опорой для советских органов, применявшими силу для их подавления. Широко раскрыта ценная работа джадида по развитию общественных знаний и высшего образования в обществе Узбекистана, необходимость уделять внимание подготовке национальных кадров, необходимость национализации советских органов управления.

Ключевые слова: национальная интеллигенция, красный Узбекистан, сельские школы, идеологические фронт, новый турецкий алфавит.

Abstract: In the article, the opinions and information about the jadid's and their relatives served as the main source and support for the soviet agencies that used force to suppress them. Jadid's valuable work on the development of public knowledge and higher education in the society of Uzbekistan, the need to pay attention to the training of national personnel, and the need to nationalize the Soviet governing bodies, have been widely disclosed.

Key words: National intellectuals, red Uzbekistan, rural schools, ideological front, new Turkish alphabet.

Mamalakatimizda qatag'on qurbanlari bo'lgan ota-bobolarimizning hayoti va faoliyatini, xususan, jadidlar merosini yanada chuqur o'rganish va ularning xotirasini abadiylashtirish bo'yicha muhim farmon va qarorlar qabul qilinmoqda. Xalqimizning noyob adabiy-badiiy merosi bugungi kunda yosh avlodga ulkan ma'naviy kuch beradi. Hozirgi kundagi keng ko'lamlı demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish asosiy maqsad qilib belgilandi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek “Umuman, biz jadidchilik harakati, ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak. Bu ma'naviy xazinani qancha ko'p o'rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz. Bu bebaxo boylikni qancha faol targ'ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”.

O'zbek xalqi tarixining XIX asr oxiri - XX asr boshlaridagi davri tarixan qisqa vaqt ni tashkil etgan bo'lsa-da, xalqning tarixiy taqdirida muhim ahamiyatga molik bo'lган davrdir. Shu davrda maydonga kelgan jadid ma'rifatparvarlik harakati maktab va maorif, matbuot, adabiyot va san'at sohalarida islohotchilik ishlarini amalga oshiribgina qolmay, xalqning madaniy, ma'rifiy va ruhiy hayotini butunlay o'zgartirib yubordi yoki shu yo'lida e'tiborga molik katta ishlarni bajardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobida: “Jamiyatshunoslar O'zbekiston tarixining ko'pgina sahifalarini qayta bitishlari... 1920-1930-yillardagi adabiy-g'oyaviy jarayonlar, kollektivlashtirish va boshqa xodisalarga hujjatlar asosida nazar solishlari kerakya”ligini, bu masalalar o'z tadqiqotchilariga muntazir bo'lib turganliklarini qayd etgan. Yurtboshimiz “Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk ke- lajagi yo'lida xizmat qilish - eng oliv saodatdir” nomli yangi asarida XX asrning 17-yilidan boshlab yozilgan tarix kitoblari yolg'on g'oyalalar asosida yaratilganini alohida ta'kidlangan.

Ushbu metodologik konsepsiyadan kelib chiqib, 1920-yillarda jadidchilik harakati namoyandalarining mislsiz og'ir ijtimoiy-siyosiy sharoitda ham vatanimiz kelajagi, millatimiz taraqqiyoti va ravnaqi uchun imkon boricha faoliyat ko'rsatganliklari haqida mazkur axborotda to'xtalamiz.

O'zbekiston milliy ziyorilari kommunistik rejim, sovet kuch ishlatish organlaridan eng asosiysi hisoblangan OGPU va uning quyi sho'balarining doimiy kuzatuvi, nazoratida bo'lганlar. Milliy ziyorilarga millatchi, hatto o'zbek shovinisti degan tamg'a bosish, ularni keng omma ko'z o'ngida badnom etish, ularga nisbatan xalqning nafrat-g'azabini qo'zg'atish, shu yo'l bilan jamiyatda qo'rquv, hadiksirash vaziyatini yaratishdek makkarona va mudhish siyosat olib borilgan. Bu jarayonni ohib berishning manbaviy bazalari sovet rejimi davrida yopiq hisoblangan, tadqiqotchilar ulardan foydalana olmaganlar. Endilikda “o'ta maxfiy” tamg'asi bosilgan bunday hujjat va materiallar bilan tanishish, ular asosida tariximizga yangicha yondashish, innovatsion fikrlar aytish imkonii tug'ildi. Moskvadagi Rossiya ijtimoiy siyosiy tashkilotlar tarixi davlat arxivida ana shunday noyob hujjat va materiallar saqlanmoqda. O'zbekistonning 1920-yillardagi tarixi, xususan milliy ziyorilarimizning faoliyati va taqdirlarini o'rganishga oid innovatsion fikr-g'oyalardan iborat bir qancha rasmiy hujjatlar- I.V.Stalining Turkiston Kompartiyasi MK va O'rta Osiyo byurosi rahbarlari bilan olib borgan yozishma xatlari, VKP(b) MKning dinga qarshi

komissiyasi raisi Ye.M.Yaroslavskiyning VKP(b) MK siyosiy byurosiga taqdim qilgan “Tashkiliy byuroning musulmonlar diniy harakatlari to‘g‘risidagi qaror loyihasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi ma’ruzasi, OGPUning O‘rtal Osiyodagi doimiy vakilligi raisi L.M.Belskiy, Sharq bo‘limi boshlig‘i Yakovlevning 1928 yilning 1-dekabrida O‘rtal Osiyo byurosi raisi I.A.Zelenskiyga yozgan “O‘zbekiston shaharlaridagi madrasalari axvoli to‘g‘risidagi ma’ruzasi”, VKP(b) MK mas‘ul instruktori M.K.Amosovning VKP(b) MKga 1929-yilning 8-mayida OGPUning O‘rtal Osiyodagi doimiy vakilligi raisi o‘rinbosari V.A.Karuskiyga, Sharq bo‘limi boshlig‘i V.M.Krukovskiyga, 1930-yilning 6-fevraldagagi “Aksilinqilobiy tashkilot - Botirgapchilar to‘g‘risidagi”, OGPUning O‘rtal Osiyodagi doimiy vakilligi raisi L.G.Mironov, OGPU Sharq bo‘limi boshlig‘i Zibrakning “Eski jadidchi, panturkchi burjua ziyolilarini Angliyaga munosabati” tezkor ma’ruzalarini sinchkovlik bilan, tanqidiy tahlil etish masalaga xolisona yondashuv imkonini beradi. Ularni turli xil noqonuniy yo‘l, usullar, xufiyona axborotlar, agentlar xabarları, chaquvlar asosida tayyorlanganligini ham e’tiborga olish zarur. Biroq, ayrim soxta ayblov, da’volar, fikrlar u yoki bu ziyolini qamoqqa olish, qatag‘on qilish uchun asos bo‘lib xizmat qilganini ham hisobga olish lozim bo‘ladi. Yuqorida nomlari zikr etilgan hujjatlardan biri - SSSR OGPU-sining 1928-yilning 31-mayida VKP(b) MKga “O‘zbekistondagi siyosiy kayfiyat to‘g‘risida”gi ma’ruzasidagi fikrlarga to‘xtalib o‘tamiz. Hujjatda O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy o‘sish zaminida o‘zbek ziyolilari orasida Moskva ta’siridan qutulish tendensiyasi rivojlana boshlagani qayd etilgan.

Unda o‘zbek ziyolilarida shovinizmning rivoji va o‘sishi to‘g‘risida agentura-hujjatli ma’lumotlar keltirilgan. Ma’ruzada boshqaruv tizimini o‘zbeklashtirish, pano‘zbekizm, sovetlarga qarshi targ‘ibot, o‘zbek millatchilarining taktikasi, sovetlarga qarshi faoliyatning tashkiliy tamoyillari, O‘zbekistonda boshqaruvni qanday tushunish lozim, ommadagi umidsizlik masalalari talqin qilingan. Bu hujjatda “O‘zbekistonning iqtisodiy va madaniy o‘sishi zaminida ziyolilar orasida Moskva ta’siridan qutulish tendensiyasi rivojlana boshlagani oqibatida ozchilikni tashkil etgan o‘zbek bo‘lmagan elat, millatlarni mensimaslik, ularga nisbatan o‘zbeklar gegemonligini o‘rnatishga intilish sezilmoqda”, degan fikr ifodalangan. Bunday intilish ko‘proq sovet apparatini, umuman boshqaruv tizimini maxalliylashtirishda ya’ni o‘zbeklashtirishda o‘z ifodasini topayotganligi ko‘rsatilgan. Bunga misol qilib bir qancha xufiyonalik bilan to‘plangan agentura ma’lumotlari keltirilgan. Ular qanchalik rost, yoki to‘qima tuxmat, uyushtirilgan uydirma ekanligini shu ma’ruzaning butun mazmunidan tasavvur qilish mumkin deb o‘ylaymiz. Hujjat tafsilotlari bilan tanishgach O‘zbekistonning o‘sha 1920-yillardagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy hayot tarzi haqida o‘quvchilar umumiyl tushunchalarga ega bo‘lsalar kerak deb o‘ylaymiz.

Jadidlar O'zbekistonni boshqaruvida hamon chorizm davridagidek yevropaliklar asosiy o'rindaliklari, davlat, hukumat va mahalliy rahbarlik organlarini mahalliylashtirish amalda emas qog'ozda bajarilayotganligini aytishga jur'at qilganlar. Munavvar qori Abdurashidxonov mahalliylashtirish g'oyasini yevropaliklarning o'zлari diskreditatsiya qilishmoqda, milliy kadrlarni avval tasdiqlaydilar, so'ngra munosib emas, deb haydaydilar, munosib kadrlarni tayyorlamaydilar, ishni ko'zini biladiganlarni esa "mafkurasi" uchun chetlashtiradilar, yevropaliklarga hech qanday chegara qo'yilmaydi, o'zbeklarni nomiga ishga jalb etayotgandek, aslida ularni o'z odamlari bilan to'ldirishni ko'zlaydilar, deb aytgan. Uningcha O'zbekistonda Zelenskiy, Belskiylar hukumati bor ekan, hukumat tarkibida hech qanday o'zgarish bo'lmaydi, uning tarkibi Moskvaga qulop soladi, mahalliylashtirish yo'q, ataylab "Aziyaxleb"ga kirganimda unda bor-yo'g'i bitta o'zbek ishlayotganini shohidi bo'ldim, GPU mahalliylashtirilmagan ekan, O'zbekistonning mustaqilligi qaerda qoladi, guruhlararo kurashni sun'iy tarzda yuzaga keltirishmoqda, Moskva buyuradi, saylovlar GPU nazoratida o'tadi, bizlar o'z odamlarimizni qo'yamiz, ular esa bu kadrlarni xaydaydilar. Ma'ruzada Munavvar qori Abdurashidxonovning "Revolusiya bizga hech narsa bermadi, hamma narsa chorizm davridagidek eskicha, faqat bayroq o'zgargan. Bayroq ostida esa o'lkada ishsizlar joylashmoqdalar" degan fikri keltirilgan. Bir partiya a'zosining yozishicha "o'zbeklar mislsiz zulmga bardosh bermoqdalar, chunki GPU mahalliylashtirilmagan, u yerda mustamlakachilar aholini ezmoqda, GPU tomonidan qamoqqa olinganlar izsiz yo'qolmoqda". Yana bir partiya a'zosi "O'zbekistondagi ruslarning siyosati chorizm siyosatidan farq qilmaydi, barcha joyda yevropaliklar" deb yozgan. Obidjon Mahmudov esa Toshkentdan u yoki bu milliy rahbar ishi Moskvaga yuboriladi, u yerda esa armanilar o'tirgan bo'ladi. GPU O'zSSR Markaziy ijroiya komitetiga bo'ysunmaydi, Moskva rahbarligida ish olib boradi, yangi bayroq ostida avvalgi mustamlakachilik siyosati olib borilmoqda deb ta'kidlagan.

O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy hayotiga dahldor fikrlar ham ana shu ma'ruzada ifodalangan.

Ma'ruzada "Qizil O'zbekiston" (hozirgi "O'zbekiston ovozi" gazetasining o'tmishdoshi) gazetasidagi maqoladan mana bu parcha keltirilgan: "Toshkentdagagi ikkita musiqa texnikumi: eski va yangi shaharda. Eski shahardagisining ahvoli achinarli darajada, mutasaddi organlar uni byudjetdan qiyamoqdalar. Ayni vaqtida yangi shahardagi texnikum gullab yashnamoqda, 200 ga yaqin o'quvchilar bor, o'zbek texnikumida esa boru-yo'g'i 10 kishi".

Oliy ta'limda tengsizlik mavjudligini jadidlar payqab, bu adolatsizlikni aytishni lozim bilganlar. O'qituvchi Eson afandi o'z xatida "O'rta Osiyo davlat universiteti rus talabalari bilan to'lib ketgan, o'zbeklar arzimas darajada ozchilikni tashkil etmoqda. Bolshevikzmnning eng salbiy tomoni uning mustamlakachilik siyosati, Turkistonni

yevropaliklar bilan to‘ldirib yuborayotganligidir”, deb yozgan. Mas’ul xodimning maqolasida O‘rta Osiyo davlat universitetida minglab talabalar, o‘zbeklar esa o‘nlabdir va u O‘rta Osiyo davlat universiteti deb atalmoqda, deb ta’kidlagan.

Ma’ruzada Cho‘lpon Abdulkamid Sulaymon o‘g‘lining she’rlari va Cho‘lpon atrofidagi gaplarga alohida e’tibor qaratilgan. Cho‘lpon va uning izdoshlari sovet hokimiyatining dushmanlari, milliy ziyolilarining reaksiyon qismi jadidlardan ham xavfli ekanligiga urg‘u berilgan. Cho‘lponning qoralama yozganlari ham sharhlangan. Masalan Cho‘lpon “agar o‘z millating rivoji haqida yozish imkoniga ega bo‘lmasang, bu sening uchun katta jazodir, bunday sharoitda O‘zbekistonda hayotning o‘zi yo‘qqa o‘xshab qolmoqda, ko‘plab o‘zbek xodimlari mustamlakachilarning millatchiligi va mustamlakachiligidan shikoyat qilishmoqda, xatto mas’ul xodimlardan Usmonxon Eshonxo‘jaev va Rahim Inog‘omovlar Moskvada “O‘rta Osiyo - sotsialistik mustamlaka, uning boyliklari O‘rta Osiyoga sarflanmayapti, sovet hokimiyatining siyosati aholining milliy va iqtisodiy talablariga muvofiq kelmayapti, o‘zbeklar hozirgi sharoitda mustaqillikdan mutlaqo mahrummdir, umustamlakachilar va yahudiylarning qulidir, shu bois Farg‘onada bosmachilik kuchaymoqda va bu harakat O‘rta Osiyoning boshqa rayonlariga ham o‘tishi mumkin”, deb aytgan. Cho‘lpon ma’lumot olishda, maktab, milliy adabiyotda ham erkinlik yo‘qligini, soliqlar shahar uchun ham qishloq uchun ham to‘lab bo‘lmaydigan miqdorda yuqori ekani, o‘zbek xodimlarining ko‘pchiligi omma oldida o‘z obro‘larini yo‘qotib qo‘ygani, ular faqatgina Moskvaning talabi ijrochilari ekanligi, haqiqiy o‘zbek ziyolilari quvilayotgani, o‘z qardoshlarimizning ongsizligidan va be’maniligidan foydalilanayotganligini aytgan.

Ma’ruzada milliy ziyolilarning mактабга bo‘lgan munosabati tasvirlanib, qator misollar keltirilgan. Munavvar qori: “Revolusiya agar mактабни bergen bo‘lsa, biroq, tarbiyasini bizlar uchun qabul qilib bo‘lmaydi.”

Sovetlarga qarshi turgan o‘qituvchilar o‘zaro suhbatlarida “O‘quvchilarda ham milliy ruh mustahkamlanayotganini ko‘rish behad quvonchlidir” deb aytishgan.

Muhojirlikda Turkiyada turgan Yoqub Fayziy xotiniga yo‘llagan xatida o‘zbek mактабларida hatto farroshlar ham mustamlakachilardanligi, o‘zbeklar esa mактаблarni saranjom-sarishta qilishga ham yaqinlashtirishmayotganligi, ahvol juda ham achinarli ekanligini yozgan.

Turk, o‘qituvchi Ibrohim afandi “O‘rta Osiyo davlat universitetida dars berish rus tilida olib borilmoqda. O‘quvchilarning millat uchun foydasi yo‘q” deb aytgan. Qayum Ramazon: “O‘zbek mактабларida o‘zbek tili bo‘lishi kerak, o‘zimiznikiga ega bo‘lmasak, o‘zimiz tayyorlamasak bunday holatdan chiqib ketolmaymiz” deb yozgan. Maqolalaridan birida u “Qishloq mактаблари o‘quvchilarini o‘zimizning yozuvchilarimiz, shoirlarimiz asarlari bilan tanishtirishimiz kerak” deb ko‘rsatgan. Munavvar qori: “Qishloq mактаблари orqali dingga qarshi targ‘ibot olib bormaslik kerak”. Eson afandi: “Yaxshisi, o‘rta o‘quv yurtlarini aralash bo‘lishi kerak, aralash

maktablarda doimiy ravishda o‘zining qullik holatini his etib, o‘zbek o‘quvchilaridan millatchilar yetishib chiqadi, sof o‘zbek maktablarida ular qizillar targ‘ibotiga osonroq tortiladilar, chunki o‘zlarini maktab egalari deb his etadilar. Shuni qayd etish kerakki, o‘zbek millatchilari orasida yoshlardan haqiqiy millatchilarni tayyorlash Ozarbayjon va chet el maktablari orqali tayyorlash zarur. Bu sohadagi ularning umidlari Berlindan kelgan o‘quvchilar misolida yaqqol namoyon bo‘layotgani ma’lumdir. Moskva va boshqa maktablarda kommunistik tarbiya berilmoqda. Bokuda Turkiya ta’siri kuchli, Turkiya bilan aloqada bo‘lish kerak, bu yerda “mafkuraviy front” yo‘q, o‘qitish uchun Bokuga yuborish kerak”.

Ma’ruzada “mafkuraviy front” masalasida yangi lotin alifbosi atrofidagi kurash qayd etilgan, alifboga qarshi turishning asosiy sababi shundaki, bu alifbo va umuman turkiy xalqlarni musulmonlar olami va musulmon madaniyatidan uzib, bir-birlaridan ajratib qo‘yadi. Ammo, milliy ziyorolar orasida yangi alifboga o‘tishga salbiy munosabatda bo‘lishlariga qaramay ularning orasida avval qarshi turgan “yangi turkiy alifbo”ga moyillik bildirayotganlari ham borligi, ular bu yo‘nalishda yangi turkiy alifboni e’tirof etgandek bo‘lib, amalda uni joriy qilmaslik, asta-sekin unga sabotaj qilish yo‘lini tutayotganlar haqida ham fikr aytilgan.

O‘zbek ziyorolar orasidagi gaplarda “yangi turkiy alifbo - ruslarning musulmonlarni mumtoz adabiyotidan uzib qo‘yishdagi yashiringan maqsadi ekani, yoshlar o‘z xudosini va millatini esdan chiqarmaydilar” degan fikrlar ham keltirilgan.

Cho‘lponning yana mana bu fikrlari keltirilgan: “Men she’r yozishni tashladim, sahnaga boraman va p’esa yozaman... O‘zbekiston xodimlari bir-birlarini g‘ajishmoqda, natijada xalq ezilmoqda. Buni ko‘rib turib men xalq nomidan fig‘on chekaman. Barcha batrak va kambag‘allar, o‘rtahollar va boylar zulm ostidadirlar”.

Moskvaga yo‘llangan ana shu ma’ruzada Cho‘lponning quyidagi fikrlari keltirilgan: “Tilni o‘rganish va tojiklarning kelib chiqishini o‘rganish uchun Bartold raisligi ostida komissiya tashkil etilgan, unga Andijonning sobiq missioneri Kuznesov kiritilgan. Komissiya tojik tili rus tili bilan o‘xhash, tojiklar kelib chiqish jihatidan mustamlakachilar va eroniylarga juda ham yaqindir degan fikrga kelgan. Toshkent tojiklari - eronlilardir. Bu professor sovet hokimiyatidan yaxshi maosh bilan ta’minlangan. Millatlar orasiga nizo urug‘ini sochishni yaxshi ko‘radi”. Ushbudan ma’lumki, buyuk vatanparvar, millatparvar Cho‘lpon akademik V.V.Bartoldning tilshunoslikka oid fikrini va 1913-yili Parijda “Markaziy Osiyoda sivilizatsiya va tillar kurashi” mavzuida doktorlik dissertatsiyasini qimoya qilgan, Andijon uezd-shahar maorif boshlig‘i, rus chinovnigi Pyotr Kuznesovning 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘oloni tarixini soxtalashtirganidan boxabar bo‘lgani, akademik Bartold, professor Kuznesovlarning ilmiy qarashlari bilan kelisha olmaganligini bilish qiyin emas. Bu uning ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy, mafkuraviy sohada o‘z zamonasining yetuk kishisi bo‘lganligidan dalolatdir.

OGPUning yuqoridagi ma'rzasida Cho'lponga qarshi qaratilgan Fitrat, Munavvar qori Abdurashidxonov, Sadreddin Ayniy, Elbeklarning salbiy fikrlari ham keltirilgan. Shuning bilan bir qatorda Cho'lponni yoqlab chiqqanlar ham eslatib o'tilgan. O'sha vaqtida partiya a'zosi bo'lgan Oybek shunday yozgan: "Cho'lpon - haqiqiy shoir, o'z millati qayg'usini kuylovchisidir, o'z she'rlarida o'z xalqining mazlumlik holatini dard-alam bilan gapirmoqda. Unga bo'ladigan hujum faqat begona millatchilik tomonidan bo'ladi". Shokir Sulaymon shunday yozgan: "Cho'lponga qarshi boshqalarning ham hujumi bo'layapti. Butun o'zbek madaniyati halok bo'lishi mumkin".

XULOSA

Yuqorida nomlari zikr etilgan jadidlar va ularning yaqinlari haqidagi fikrlar, ma'lumotlar ularni qatag'on qilish uchun sovetlarning kuch ishlatar organlari uchun asosiy manba, dastak bo'lib xizmat qildi.

Jadidlarning O'zbekiston jamiyatida xalq maorifi, oliv ta'limni rivojlantirish, bunda milliy kadrlar tarbiyalashga asosiy e'tibor berilishi zarurligi, buning uchun sovet boshqaruvi organlarini milliylashtirish kerakligi haqida olib borgan baholi qudrat faoliyatini keng ochib berish uchun ko'plab yangidan yangi hujjatlarni o'rganish, tahlil etish orqali ilmiy iste'molga solish hozirgi tarixshunosligimizning dolzarb masalalaridan ekanligi aniq va ravshandir.

Biz buyuk millat sifatida dunyoda o'z o'mrimizga ega bo'lishni istasak, buyuk tariximiz bilan bir qatordama'rifatparvar jadid bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni chuqur o'rganib, ularning o'gitlariga amal qilmog'imiz, Vatan taraqiyoti uchun jiddu jahd qiladigan yangi avlodni tarbiyalamog'imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I. Karimov. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T.: "O'zbekiston". 2001. - B. 91.
2. I. Karimov Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajash yo'lida xizmat qilish - eng oliv saodatdir. - T.: "O'zbekiston" 2015.-B . 111.
3. Sh. Mirziyoev. Jadidlar to'plami kitobidan. T.2022-yil.